



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT  
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,  
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga  
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM  
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

**Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami**

**2023-yil 28-noyabr**

**TOSHKENT-2023**

UDK 04  
KBK 93  
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

**Mas’ul muharrir:**

**Xudoyev G‘anijon** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Tahrir kengashi a‘zolari:**

**Turg‘unova Nasiba** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Yakubov Zohidjon** – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

**Xudoyqulova Nilufar** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

**To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.**

yuritadilar. Ular etuk insonlarning professionalizmi, shaxs rivojlanishining gullagan davridagi psixik qonuniyatlari, professionalizmga etishdagi balandliklardan ota olish masalalari bilan shug`ullanganlar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI

1. Zakirova, Z. (2023). O`ZBEK MILLIY MUSIQASINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIY ETISH BOSQICHLARI. Interpretation and Researches, 2(1)
2. Azamovna, Z. Z. (2022). From the History of Uzbek National Musical Art. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(12), 297-301.
3. Azamovna, Z. Z. (2022). Theoretical Foundations of the Formation of Music History. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(12), 302-306.
5. Zakirova, Z. A. (2022). Methods of Using Musical Means in Teaching the History of the Vienna Classical School in the General Educational Process. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 95–99.
6. За Закирова [Методика использования музыкальных средств в обучении истории Европы в общеобразовательной школе](#) Science and Education 3 (4), 615-621.

## MEROS VA MAS`ULIYAT TUSHUNCHALARINING O`ZIGA XOSLIGI

**Oybek DAVLATOV,**  
*O`zDSMI “Ijtimoiy-gumanitar  
va pedagogika” kafedراسi dotsenti,  
pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD).*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada moddiy va nomoddiy madaniy meros, ular to`g`risidagi meyoriy hujjatlar hamda moddiy va nomoddiy merosning tarkibiy qismlari borasidagi ma`lumotlar keltirilgan. Shuningdek, merosni asrash va unga fuqarolarning mas`uliyatini oshirish to`g`risida fikrlar bayon etilgan.*

***Kalit so`zlar:** jamiyat, madaniy meros, san`at, xalq og`zaki ijodi, qadriyat.*

Mamlakatimizda moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish ko`lami yil sayin kuchayib bormoqda. Xususan, Prezidentimizning 2018-yil 19-dekabrda “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” qarori[1] bilan bu faoliyat qonuniy jihatdan yanada mustahkamlandi.

Xalqimizning boy va rang-barang nomoddiy madaniy merosi ulug` ma`naviyat va ma`rifatga ega bo`lgan ajdodlarimizning bizga qoldirgan bebaho xazinasidir. Shu o`rinda Oqil Salimovning “Yangi O`zbekiston davlati” kitobida keltirib o`tilgan quyidagi fikrlarga e`tibor qaratsak! “Millat o`lmaydi, agar uning qadriyatlari toptalmasa, agar urf-odatlar, an`analar qadrlansa, agar odamlar o`tmishiga katta hurmat, ajdodlariga e`tiborli bo`lsa, ular qoldirgan hayotiy va madaniy qadriyatlarni hurmat qilsa![2,118].

Албатта, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, bayram va sayllarimiz, to`y va ma`rakalarimiz, xalq og`zaki ijodi – dostonlar, ertaklar, matal va maqollar, musiqa va raqs san`ati, ashulachilik va boshqalar o`zbek xalqining qadim va asrlar

sinovidan o‘tib sayqallanib kelgan bebaho ma’naviy mulkidir. Nomoddiy madaniy meros odatda quyidagi oltita yo‘nalishga bo‘linadi: so‘z san’ati (xalq og‘zaki ijodi); madaniy muhit (milliy qadriyatlar, diniy e’tiqod, urf-odatlar, bayramlar, xalq o‘yinlari, kurash, uloq-ko‘pkari va boshqalar); an’anaviy musiqa; an’anaviy raqs san’ati; milliy hunarmandchilik, badiiy bezak san’ati; tomosha san’ati (xalq teatrlari, dorbozlik san’ati, qiziqchilar, masxarabozlar, tosh o‘ynatuvchi polvonlar va boshqalar).

Nomoddiy madaniy merosimizning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan so‘z san’ati o‘z ichiga folklor, ya’ni xalq og‘zaki ijodini qamrab oladi. Tariximizning qadim davrlarida yaratilgan va asrlar davomida sayqallanib, boyitilib bizgacha yetib kelgan turli yo‘nalishdagi xalq qo‘shiqlari (to‘y va bayramlarda, sayllarda aytiladigan qo‘shiqlar, chorva va dehqonchilik, fasl va mavsumlar bilan bog‘liq qo‘shiqlar, marosim qo‘shiqlari va boshqalar), laparlar, onalarimiz allalari, ertak va rivoyatlar, afsonalar, dostonlar, maqol va matallar o‘zbek xalqi og‘zaki ijodining naqadar boy, rangbarang va jilokorligini ifodalaydi.

Xalq og‘zaki ijodi ichida dostonchilik an’analari o‘ziga xos o‘ringa ega. O‘zbek xalqi dostonchiligining “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Ravshanoy” va boshqa qator dostonlari xalqimiz ma’naviyati, jasorati, oriyatining betakror madhidir. Ular ichida “Alpomish” dostoni o‘ziga xos o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, “Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston bo‘lsa, “Alpomish” ana shu dostonning shoh bayti, desak, to‘g‘ri bo‘ladi”. [4; 33-b.]

Ma’lumki, mustaqillik arafasidayoq, 1989-yil 28-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan O‘zbekistonda Navro‘zni umumxalq bayrami sifatida nishonlash to‘g‘risida qaror qabul qilindi. 1990-yildan esa 21-mart “Navro‘z” milliy xalq bayrami kuni deb e’lon qilindi. Mustaqillik davrida nomoddiy madaniy merosimizning bu noyob yodgorligi ham “Boysun tumani madaniy muhiti”, “Shashmaqom”, “Katta ashula”, “Askiya” (Payrov) so‘z san’ati kabi YuNESKO tashkilotining “Jahon nomoddiy madaniy merosi” ro‘yxatiga kiritildi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan madaniy meroslarimiz va erishilgan yutuqlar har bir o‘zbekman degan o‘z Vatani sevadigan fuqorani faxrlantiradi va unga ruh bag‘ishlaydi. Shuning bilan birgalikda unga katta mas’uliyat yuklaydi. Mas’uliyat nima? Lug‘atlarga ko‘z yugurtirib, “mas’uliyat” so‘zi arabchada “javobgarlik” degan ma’noni anglatishi ko‘pchilikka ma’lum. Bu degani, har bir kishi fuqarolik burchidan kelib chiqib, Vatani va oilasi oldida unga ishonib topshirilgan vazifani sidqidildan, aql-idroki va bilimi bilan bajarishidir. Har birimiz bu javobgarlikni, ya’ni mas’uliyatni chuqur his etib, chin yurakdan ado etsak, bu bilan Vatanimiz ravnaqiga, avlodlarimizni moddiy va nomoddiy meroslarini ko‘payishiga munosib hissa qo‘shgan bo‘lamiz.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrda PQ-4068-son qarori.
2. Salimov O. Yangi O‘zbekiston davlati. – T.: Ma’naviyat nashriyoti, 2023. – 238 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.